



## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA DIGNITONIM BIRLIKLARNING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI

Omonov Shuhrat Normumin o'g'li

70111801 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) magistratura  
mutaxassisligi talabasi. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7475790>

### ARTICLE INFO

Received: 13<sup>th</sup> December 2022

Accepted: 21<sup>th</sup> December 2022

Online: 23<sup>th</sup> December 2022

### KEY WORDS

*O'zbekiston qahramoni, unvon  
olgan ayollar, markiza,  
baronessa, grafinya,  
viscountess.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada ingliz va o'zbek xalqining yuksak xizmatlari va sharaflariga beriladigan faxriy unvonlar ingliz xalqida qanday maqsadda va o'zbek xalqida qanday maqsadda qo'llanilishini taqqoslangan holda bayon qilingan.*

Ma'lumki, barcha qilingan mehnatlar, harakatlar zamirida yuksak istedad va tajribalar yotadi. Bunda yuksak mehnatlar uchun rag'batlantirishlar eng ajoyib motivatsiyadir. Rag'batlantirishlar turli xil bo'lad. Bular, mablag' orqali, yozma yorliqlar orqali, ma'naviy ozuqa va boshqalar orqali. Shunga o'xshash rag'batlantirishlardan eng yuksak baholanadigani faxriy unvonlardir. Faxriy unvonlar turli mamlakatlarda martabasi, yuksak xizmatlarini nazarda tutgan holda turlicha ahamiyatlarni kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida barcha qilingan mehnatlar uchun faxriy unvonlar joriy qilingan va bular doim munosib deb topilganlarga taqdim etiladi. Bular, faxriy unvonlar, orden, medallardir. O'zbekiston Respublikasida bu mukofotlar uchun "Davlat mukofotlari to'g'risida" moddalar ham mavjud masalan, 2-modda. "O'zbekiston Qahramoni" unvoni, O'zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari, faxriy unvonlari va Faxriy yorlig'i davlat mukofotlari hisoblanadi."

Unvonlarni qo'lga kiritishda ayollar ham muhim ro'l o'ynamoqda. "O'zbekiston Qahramoni" - O'zbekistonning oliy darajadagi unvoni. 1994-yil 5-mayda ta'sis etilgan. O'zbekiston Respublikasining fuqarolariga davlat va xalq oldidagi qahramonona jasorat ko'rsatish bilan bog'liq xizmatlari uchun beriladi. Unvon ayrim hollarda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslarga ham berilishi mumkin. „O'zbekiston Qahramoni“ unvoni bilan taqdirlangan shaxsga oliy nishon — „Oltin Yulduz“ medali va unvon berilganligi to'g'risidagi hujjat topshiriladi. „O'zbekiston Qahramoni“ unvoni bilan taqdirlangan shaxslar oylik ish haqiga yoki pensiyaga qo'shimcha ravishda eng kam oylik ish haqi miqdorida oy sayin to'lanadigan ustama mukofot oladilar, qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan imtiyozlardan foydalanadilar. „Oltin Yulduz“ medali 750 darajali (probali) oltin qotishmasidan tayyorlanadi va old tomonida har bir qirrasining ikki yonbag'ridan oltin nurlar taralgan sakkiz



qirrali yulduz shaklida bo'ladi, „O'zbekiston Qahramoni“ faqat bir marta beriladi. „O'zbekiston Qahramoni“ unvoni vafotidan keyin berilgan taqdirda „Oltin Yulduz“ medali va unvon berilganligi to'g'risidagi hujjat mukofotlanganning oilasiga topshiriladi. Ma'lumki, yurtimizda „O'zbekiston Qahramoni“ unvoni bilan 17 nafar ayol taqdirlangan bular:

1995-yil. Temirova Muyassar — Buxoro shahridagi „Zardo'z“ aksionerlik jamiyati yuksak badiiy buyumlar tayyorlash uchastkasining katta ustasi 1996-yil.

Kochkarova Ayshaxon — Namangan viloyati tug'ruqxonasi bo'lim mudiri 1997-yil. Madaliyeva Manzura Abdullayevna — Qo'qon shahridagi 10-o'rta maktab matematika o'qituvchisi

1997-yil. Saitova Onesiya Saitovna — Qoraqalpog'iston Respublikasi 1-tug'ruqxonasining ginekologiya bo'limi mudiri

1999-yil. Ismatova Mavlyuda — O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi, Yunusobod tumani 273-o'rta maktab direktori

1999-yil. Rahmatova Martiya Ahmedovna — „Buxoroteks“ hissadorlik jamiyati 1-yigiruv-to'quv fabrikasining yigiruvchisi

2001-yil. Pak Vera Borisovna — Xiva shahridagi 20-„Mehribonlik uyi“ direktori

2002-yil. Akramova Dilbar — O'zbekiston „Mehr-shafqat va salomatlik“ jamg'armasining Namangan viloyati bo'limi boshqaruvi raisi

2004-yil. Mahmudova Anor Madaminovna — Gurlan tumanidagi Ibn Sino nomli 5-maktab direktori

2006-yil. Abdullaxo'jayeva Malika Samatovna — Respublika patologik anatomiya markazi direktori, akademik

2007-yil. Mirzayeva Xalchaxon — To'raqo'rg'on tumanidagi „Xaticha aya“ fermer xo'jaligi boshlig'i

2008-yil. Abdullayeva Siyosatxon — Oltinko'l tumanidagi „Oltinko'l vodiy gulshani“ fermer xo'jaligi boshlig'i

2010-yil. Ergasheva Patila — Buvayda tumanidagi „Patilaxon“ fermer xo'jaligi boshlig'i

2015-yil. Ganiyeva Suyima Ganiyevna — Toshkent davlat sharqshunoslik institutining „Mumtoz filologiya“ kafedrasini professori

2016-yil. Sharapova Muxabbat Arapovna — Qarshi shahridagi 2-ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktab-internatining matematika fani o'qituvchisi

2019-yil. Murotova Lola — Farg'ona viloyati Oltiariq tumanidagi „Nurli obod“ fermer xo'jaligi boshlig'i

2021-yil. Yo'lchiyeva Munojatxon — O'zbekiston davlat konservatoriyasi kafedra mudiri, O'zbekiston xalq artisti.

Shu yili bu unvonni sihibasiga aylangan ayol Yo'lchiyeva Munojatxon Abduvaliyevna (26-noyabr, 1960, Buloqboshi tumani) — xonanda. O'zbekiston xalq artisti (1994). Toshkent konservatoriyasini tugatgan (1985). Ana'naviy xonandalik va maqom san'ati sirlarini M. Mirzayev va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Sh. Mirzayevlardan o'rgangan. O'zbekiston

teleradioqo'mitasining „Maqom“ ansamblida (1980—82), M. Qoriyoqubov nomidagi O'zbek davlat filarmoniyasi (1982-yildan, 1996-yildan „O'zbeknavo“)da xonanda. Repertuaridan maqom yo'llari („Saraxbori Navo“, „Saraxbori Dugoh“, „Mo'g'ulchai Navo“, „Talqini Ushshoq“ va b.), o'zbek mumtoz va xalq ashulalari („Ushshoq“, „Munojot“, „Chorgoh“, „Tanavor“, „O'zgancha“, „Girya“ va b.), katta



ashulalar („Ey, dilbari jononim“, „Ishqing o‘tig‘a“ va b.), o‘zbek bastakorlari asarlari — „Nihon etdi“, „Mehnat ahli“ (M. Mirzayev), „Bul ajab“, „Qayondir“, „Ra‘no kibi“ (Sh. Mirzayev) va b. o‘rin olgan. Hofiza o‘zining noyob ovozi, chuqur hissiyot va dardli nolalarga boy ijrosi, o‘ziga xos, yurakdan kuylash uslubi bilan ajralib turadi. Bastakor va sozanda Sh. Mirzayev boshchiligidagi musiqachilar guruhi bilan Osiyo, Yevropa, Amerika va Afrika mamlakatlarida bir necha marta gastrolga bo‘lgan. Y. ijro etgan ashulalari gramplastinka (Toshkent, 1981) va kompakt disk (Fransiya, 1995; Germaniya, 1997)larga yozilgan. Uning ijodiga bag‘ishlangan 2 film („O‘zbekkinoxronika“ studiyasi, 1982; „O‘zbektelefilm“ studiyasi, 1983) va 3 videofilm („O‘zbekteleradio kompaniyasining „Videofilm“ studiyasi, 1987, 1993, 2000) suratga olingan. "Sharq taronalari" 1-xalqaro musiqa festivalida 1-mukofot sovrindori (1997). "O‘zbekiston Qahramoni" (2021). Bu mukofotga erishish uchun bunga loyiq inson sifatida tan olinishi kerak.

Shu bilan bir qatorda Britaniyaliklar orasida ham O‘zbekistondagi kabi unvonlar mavjud va bulardan eng muhimlari Markiz va Markiza (birinchi marta 1385 yilda tayinlangan). Markiz - inglizlarning dyuk va graf o‘rtasida joylashgan zodagonlik unvoni. Bu ma‘lum hududlarning chegaralarini belgilashdan kelib chiqadi (frantsuzcha "belgi" yoki chegara hududidan). Markizlarning o‘zlariga qo‘shimcha ravishda, bu unvon gertsogning to‘ng‘ich o‘g‘liga va gersogning qiziga beriladi.

Baron va baronessa (birinchi marta 1066 yilda paydo bo‘lgan). Bu so‘z qadimgi germancha "erkin lord" dan keladi. Baron - Angliyadagi zodagonlarning eng past darajasi. Agar

unvon tarixan feodal baronlarga tegishli bo‘lsa, baron o‘sha baronlikni ushlab turadi. Baronlarning o‘zlariga qo‘shimcha ravishda, odobli unvon ko‘rinishidagi quyidagi shaxslarga ham berilgan: vikontning to‘ng‘ich o‘g‘li, grafning kenja o‘g‘li, baronning to‘ng‘ich o‘g‘li, keyin kenja o‘g‘illari. vikontlar va baronlarning kichik o‘g‘illari ierarxiyaga ergashgan.

Boshqa bir unvon, garchi meros bo‘lib qolgan bo‘lsa-da, lekin inglizcha aristokratik shaxslarga tegishli bo‘lmasada, baronetdir (ayol ekvivalenti yo‘q). Baronetlar Lordlar palatasida o‘tirmaydilar va zodagonlarning imtiyozlaridan foydalanmaydilar. Turli darajadagi tengdoshlarning kichik o‘g‘illarining katta bolalari, baronetlarning katta va kichik o‘g‘illari baronet bo‘lishdi. Earl (Earl) va grafnya (800-1000 yillarda ishlatilgan). Earls - ilgari o‘z yerlari - grafliklariga egalik qilgan va boshqargan ingliz zodagonlarining a‘zolari, qirol nomidan viloyat sudlarida ishlarni ko‘rib chiqishgan, mahalliy aholidan jarima va soliq yig‘ishgan.

Viscount va Viscountess (bunday unvon birinchi marta 1440 yilda berilgan). Bu so‘z lotincha "vitse-count", "deputatlar hisobi" dan keladi. Otaning tirikligida, Earlning to‘ng‘ich o‘g‘li yoki markizning kenja o‘g‘illari xushmuomalalik unvoni sifatida viskontga aylangan. Ko‘pincha, har qanday unvon egasi erkakdir. Ba‘zida unvon ayolga tegishli bo‘lishi mumkin, agar u meros qilib olinsa. Boshqa hollarda, ayolga erining xotini sifatida xushmuomalalik unvoni berilgan. Shu bilan birga, ayol erining imtiyozlariga ega emas edi. Ayol unvoni ikkita holatda meros qilib olingan: Agar ayol kelajakda erkak vorisga o‘tishi uchun unvonning faqat qo‘riqchisi bo‘lsa; Bir ayol haqli ravishda unvonni olganida, lekin



Lordlar palatasida o'tira olmagan va ma'lum lavozimlarni egallagan. Agar erining sharofati bilan unvon olgan ayol beva bo'lib qolsa, u uni saqlab qolgan, unga murojaat qilmasdan oldin unga "beva" so'zini qo'shish mumkin edi. Agar ayol boshqa turmushga chiqsa, u yangi erining unvoniga mos keladigan yangi unvonga ega bo'ladi yoki hatto umuman noma'lum shaxsga aylanadi. Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Inglizlarda faxriy unvonlar O'zbeklarning faxriy unvonlari bilan umrbodga berilishi o'xshash tomonlari bo'lsa, farqli jihatlari, bizda ya'ni O'zbekistonda faxriy unvon meros qilib qoldirilmaydi ammo unvon loyiq topilgan shaxsga vafotidan keyin berilsa u oila azolariga topshirilishi qonunda belgilab

qoyilgan. Va yana bir jihati shundaki, "O'zbekiston qahramoni" unvonini olgan ayolni turmush o'rtog'i olamdan o'tsa unga hech qachon beva so'zini qo'shib murojat qilinmaydi. Angilyada esa unvoni bor ayolga bu so'z qo'shib aytilgan. Inglizlarda martaba muhim ro'l o'ynasa, O'zbeklarda moddiy taraflama ham ma'naviy taraflama ham ro'l o'ynaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har bir millatning o'z qadryati va o'z qarashlari bor. Bir mamlakatda inson qilgan amaliga nisbatan taqdirlansa, boshqa bir mamlakatda taqdirlanish dunyoga kelishi bilan unga meros sifatida qoldiriladi va umrining oxirigacha shu unvon bilan yashab o'tadi.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV Toshkent sh., 1995-yil 22-dekabr, 176-I-son.
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-y.